

**INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIKNING****AHAMİYATI****Rashidova Maftuna Komil qizi**

Oriental universiteti, Boshlang'ich ta'lif yo'naliishi 4-bosqich talabasi

**Nazarova Dildora**

Oriental universiteti o`qituvchisi

[\*\*https://doi.org/10.5281/zenodo.14510033\*\*](https://doi.org/10.5281/zenodo.14510033)

Mamlakatimizda ta'lif sohasiga jahon standartlari talablarini joriy etish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalarning sog'lom tengdoshlari orasida bir xil sharoitda ta'lif olishini ta'minlash tendensiyasi ham shular jumlasidandir. Respublikamizda alohida ehtiyojlarga ega bo`lgan bolalarni ilk yoshdan ta`limga tayyorlash , psixologik- tibbiy- pedagogik yordamlarni kompleks yo`naltirilgan holda olib borish masalalariga ko`proq e`tibor qaratilmoqda. Psixologo- tibbiy – pedagogik maslahatxonalarda alohida ehtiyojlarga ega bo`lgan bolalarga to`g`ri tashxis qo`yish , unga mos keluvchi korreksion , ta`limtarbiya usullarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.Alohida ota-onalarga beriladigan maslahatlar ularning farzandlarini yanada sog`lomlashtirish va ehtiyojlariga mos ravishda bo`lishi kerak. Buning uchun quyidagi vazifalarning amalga oshirilishi zarur:

1.Ota- onalarga farzandining ruhiy rivojlanishining faqat zaif tomonlari emas, balki uning ichki imkoniyatlari, hamda uni bartaraf etishdagi ahamiyatini ko`rsata olishi; 2. Ota- onalar va oila a`zolariga bola muammosini hal etishda o`z javobgarligi , kuchi va imkoniyatlarini his etishga o`rgatish;

3. Bola individual va tipologik xususiyatlari va imkoniyatlariga mos keluvchi ta'lif sharoitlarini belgilash;

4. Oilaning tibbiy, ijtimoiy – psixologik bilimlarini, bola bilan muloqot malakasini, bola muammosini o`zaro muhokama qilish orqali umumiylar tarbiyalashdan xabardor bo`lish ko`nikmasini oshirish;

5. Ota- onalar farzandining hayoti, uning muammolarini hal etish uchun javobgarlikni his etishi, bola muammolarini yuzasidan oilada hayotiy qarirlarni tanlashga yordam berishini ta'minlashdan iboratdir.

Bola rivojlanishining buzilishi muammolarini bo'yicha ota-onalarga maslahat berish jarayonida quyidagi tamoyillarga ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir:

\* Bolaning qiziqishlariga e`tibor berish , mutaxassis va maslahatchi psixologlar ishining o`ziga xosligi faqat bolaga emas, balki uning ota- onasiga va oila a`zolariga maslahat berish yo`li bilan belgilanadi.

\* Ayrim ota -onalar turli sabablarga ko`ra bola rivojlanishini buzilish darajasini oshirib

yuboradilar, muammolarni juda qiyin va og`ir qabul qiladilar.

Ba`zi bir ota - onalar psixologo-tibbiy- pedagogik maslahatga shifokor, pedagog yoki qarindoshlari ta`siri natijasida kelgan bo`lsalarda, o`z farzandining muammosini tan olishni istamaydilar, bola rivojlanishidagi barcha buzilishlarini rad etadilar.

\* Maslahatxona mutaxassislari va psixologlari bolaning qiziqishlari va ruhiy rivojlanish buzilishlarini hisobga olgan holda unga mos ta`lim tarbiyaviy shart- sharoit mohiyatini aniq, ravshan ochib beradilar. Sababi, maslahatchi psixolog bola va oila a`zolariga yoqadigan yo`lni emas, balki bola rivojlanishi uchun foydali bo`lgan yo`l- yo`riqni ko`rsatadilar.

\* Maslahat oluvchi shaxsini hurmat qilish. Bu tamoyil mutaxassislar fikrini majburan qabul qildirmaslik, ularning tavsiyalariga so`zsiz bo`ysunishlarini talab qildirmaslik, bola rivojlanishi muammolariga mutaxassislarni bee`tibor bo`lmasliklarini ko`zda tutadi.

\* Maslahatxona mutaxassislari va psixologlari ota- onalar bilan farzandi muammosini hal etishda ular bilan bir xil huquqga ega, sababi oila a`zolari bola hayotidagi o`ziga xosliklar bo`yicha to`liq va aniq ma`lumotlarga egadirlar va o`z fikrlarini asoslab bera oladilar.

\* Ota - onalar fikrini hurmat qilish , muammo va uni hal etish yo`llarini o`zaro bog`liq holda birga muhokama qilish sharoitida , ular mutaxassislar va psixologik fikrini ongli idrok etadilar, berilgan tavsiyalarga rioya qiladilar, o`z farzandining muammosini hal etish javobgarligini bo`yniga oladilar.

\* Maslahat oluvchi shaxsini hurmat qilish tamoyili bir necha sharoitlarini amalga oshirilishini ko`zda tutadi. Jumaladan: tashxis qo`yishning ehtiyyotkorona shakli. Farzandining rivolanishidagi nuqsonlari haqidagi ma`lumot ota - onada murakkab tuyg`ular , bezovtalik holatini yuzaga chiqarishi mumkin. Bolaga tashhis qo`yilganda , mutaxassis va psixolog xulosasi yumshoq shaklda bayon etilishi maqsadga muvofiqliр. Ota- onlar bilan bo`ladigan suhbatda murakkab, kasbiy, ilmiy tildagi atamalardan foydalanish ota- onalarning ma`lumotni to`liq idrok etishini murakkablashtiradi va ularni xavotirga qo`yadi. Shuning uchun ota - onalarga bola xususiyatlari haqida tushunarli ma`lumot beriladi va bolaning qiziqishlarini amalga oshirish maqsadida qanday ishlarni amalga oshirish zarurligi tushuntiriladi.

\* Oilaning ijtimoiy – madaniy va psixologik xususiyatlarini hisobga olish tamoyili maslahatxona mutaxassislari va psixologlari ota- onalar bilan suhbatda ularning ishi , ijtimoiy kelib chiqishi, madaniyatini e`tiborga olishlari zarur. Tibbiy va ijtimoiy ma`lumotlarni jamlashda va tekshirishda oila a`zolarining psixologik va tipologik xususiyalari haqida tasavvurga ega bo`lishlari zarur. Bu ma`lumotlar muvaffaqiyatli maslahat berish usullarini va metodlarni tanlashda muhim omil sanaladi.

\* Oila a`zolarining fikrini hisobga olish tamoyili maslahat berishda qo`pincha , otaonalar farzandining muammosi, uni hal etish yo`llarini topishda bir fikrga kela olmaydilar va mutaxassis

bilan alohida bu muammoni hal etishni hohlaydilar. Mutaxassis va psixologlar bola qiziqishlarini himoya qilib, maslahat berish sirini saqlagan holda, bolaning ota-onasi va qarindoshlari bilan alohida suhbatlashadi. Shuningdek bola ehtiyojlarini qondiradigan xulosaga kelishda barcha oila a`zolarining fikrini hisobga olishi maqsadga muvofiq bo`ladi.

Alohida ehtiyojga ega bo`lgan o`quvchilarning individual va tipologik xususiyatlari turlicha bo`lib, ularning ba`zilarini keltirib o`tamiz. Alohida ehtiyojga ega o`quvchilar uchun individual rejalar tuzish lozim. O`quvchilarga individual maslahatlarni berishda uning o`ziga xos xususiyatlarini va bilish jarayonidagi turfalikga e'tibor qaratish lozim. Psixolog, fan o`qituvchisi va sinf rahbari hamkorlikda faoliyat olib borish katta samara beradi. Alohida ehtiyojga ega ammo qaysidir bir fanga yoki kasbga nisbatan ikkilanuvchi o`quvchi-Ba`zi ota-onalar o`z farzandlariga turli kasblarni tavsiya qiladilar. Biror kasbni tavsiya qilib o`z farzandiga ikkinchi bir kasb to`g`risida ham uni qiziqtiruvchi ma`lumotlarniberib qo`yadilar. Ota-onalar farzandining imkoniyatlariga qarab masalahatlar berishlari maqsadga muofiqdir. Ba`zi ona-onalar alohida ehtiyojga ega bo`lgan farzandining ta`lim olishiga yuzaki qaraydilar. Shu sababli o`z farzandini o`quv-biluv faoliyatiga to`liq yonaltirishda qiyinchiliklarga uchraydilar. Ushbu jarayonni ijobiliylashtirishda uning individual va tipologik xususiyatlariga e'tibor qaratish samara beradi.

Yangiliklarni yoqtiradigan fantaziysi kuchli o`quvchi-, atrofidagilar- ga havas bilan qaraydilar va kelajak haqida ko`proqnazariy ma`lumotlarga ega bo`ladilar. Amaliyotda esa ularning mazmun-mohiyatini to`liq tasavvur qila olmaydilar. O`quvchining alohida extiyojini nazarda tutgan holda ota-onalar, o`qituvchilar individual va istiqboll reja tuzishlari tizimli aniq maqsadlarga asoslangan hamkorlikdagi faoliyatni olib borishlari lozim.

## REFERENCES

1. L.Mo'minova, Sh.Amirsaidova va boshqalar Maxsus psixologiya -T.: Fan va texnologiyalar .2013.
2. P.Po'latova, L.Nurmuxamedova, Sh.Amirsaidova Maxsus pedagogika -T.: Fan va texnologiyalar,2014.
3. L.R.Mo'minova, O.A.Maxmudova, Sh.A.Karimova. "Nutqni tekshirish va rivojlantirish bo'yicha logopedik albom" T., 2016.
4. «Ta'lif hamma uchun» Save the children. 2002 yil. Международный научный журнал №10(100), часть2 «Научный импульс» Мая, 2023 823
5. «Inklyuziv ta'lif». Ture Yonsen. Toshkent. 2003 yil. YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonasi va Operation Merey tashkiloti tomonidan chop etilgan.